

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 11

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Kucharov Jamshid Qulnazarovich

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) 11-14

Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ 15-23

Ҳамаев Нодирбек Мўминович

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) 24-32

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI 33-36

Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ 37-42

Артикбаев Ойбек Салимахамаатович

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 43-56

Atavullayeva Shaxlo Musoyevna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Қўчқаров Файзулло Абдужабборович

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 63-70

Shao Junling

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

Ashirov Nurmurod Qulmatovich

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI 77-82

Togayev Salim Sobirovich

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI 83-89

Саттаров Ғанижон Озодович

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ 90-96

<i>Yakubova Samira</i>	
LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i>	
SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i>	
INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i>	
TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i>	
NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i>	
DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI	150-159
<i>Aziza Umarova</i>	
AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i>	
СУРХОҲДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i>	
SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i>	
КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE "HAYOT FALSAFASI" KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI	293-299

Xandamova Marifat Akramovna
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

Teshaboev Muhiddin Marifovich
 IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING
 MAQSADI 305-311

Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
 TIZIMIDAGI O’RNI 312-320

Talapov Baxriddin Alijanovich
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL
 XUSUSIYATLARI 321-326

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

Olga Filippova
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION 333-345

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH
 MASALALARI 346-351

Narzieva Gulnoza Akbarovna
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI 352-357

Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING
 QO’LLANILISHI 358-362

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ 363-371

Атаев Шокир Куранбаевич
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ 372-377

Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИХАТЛАРИ
 ХУСУСИДА 378-385

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI	479-484

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O'QITISH USULLARINI TANLASH	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O'RGANISH VA NAMOYISH ETISH	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA'LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	519-525

09.00.00-Фалсафа фанлари

Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqnd davlat universitetining
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti, Gumanitar
fanlar kafedrasida o'qituvchisi falsafa fanlari bo'yicha PhD

INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOIIY TABIATI

Annotatsiya. Hozirgi zamon fani inson hodisasini o'rganishga tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka oid bilimlar sintezi asosida yondashishni taklif qiladi. Bunda inson ijtimoiy xulq-atvorining ijtimoiy-biologik asoslarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Maqolada ushbu muammoning ayrim tahlili keltirilgan. Shuningdek ushbu maqolada inson haqidagi fikrlar inson tabiati va mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: falsafiy antropologiya, kosmotsentrizm, teokosmizm, sotsiotsentrizm, kulturotsentrizm, dezanthropotsentrizm, koevoluyusiya, ekzistensiya, personalizm, eksteriorizatsiya, interiorizatsiya.

Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich

Doctor of philosophy Lecturer, Department of Humanities,
Faculty of Pedagogy and Language Teaching, Urgut Branch of
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

THE SIGNIFICANCE OF THE WORK OF "MANOQIBI SHEIKH KHUDYDAD VALY" IN FORMING SPIRITUAL EDUCATION

Abstract. Modern science proposes to approach the study of the human phenomenon on the basis of a synthesis of knowledge related to natural science and social science. At the same time, the main problem is to determine the socio-biological foundations of human social behavior. The article partially analyzes this problem. At the same time, this article presents judgments about a person, considers the nature and essence of a person.

Key words: philosophical anthropology, cosmocentrism, theocosmism, sociocentrism, cultural centrism, deanthropocentrism, coevolution, existence, personalism, exteriorization, interiorization

Кахоров Пулотжон Хурсанмуродович

доктор философии (PhD) преподаватель кафедры гуманитарных наук
факультета педагогики и преподавания языков
Ургутского филиала Самаркандского государственного
университета имени Шарофа Рашидова

СУЩНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА, ЕГО БИОЛОГИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ ПРИРОДА

Аннотация. Современная наука предлагает подходить к изучению феномена человека на основе синтеза знаний, относящихся к естествознанию и обществоведению. При этом главной проблемой является определение социально-биологических основ социального поведения человека. В статье частично проанализирована данная проблема. Вместе с тем в данной статье приведены суждения о человеке, рассмотрены природа и сущность человека.

Ключевые слова: философская антропология, космоцентризм, теокосмизм, социоцентризм, культуроцентризм, дезантропоцентризм, коэволюция, экзистенция, персонализм, экстериоризация, интериоризация

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N26>

Kirish. Inson – bu dunyoning aziz-u mukarram xilqati, mavjudotlar ichida sarvaridir. Inson so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan “Humanus” tomonidan tashkil etilgan “gumus” bu “yer” degan ma‘noni anglatadi va qo‘shimcha — “Anus” Birinchi odam loydan, tuproqdan yoki loydan yasalgan degan ma‘lumotga ko‘ra “biron bir narsaning kelib chiqishi”ni bildiradi.

Inson muammosi doim falsafaning bosh mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Inson tabiati, uning dunyodagi o‘rni va vazifasini anglab yetishga juda ko‘p mutafakkir va olimlar harakat qilganlar. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda insonning tabiiy-ijtimoiy borlig‘i mavjudligi tan olinadi. Biologizatorcha yondashuv ancha cheklangan, chunki u insoniy munosabatlar me‘yorlarining evolyutsion-biologik asoslariga e‘tibor qaratadi. Sotsiologizatorcha yondashuv inson tabiatini ijtimoiy ahamiyatga molik sabablar bilan tushuntiradi va insonning ijtimoiy funkcioner, “qandaydir genlar”ga e‘tibor bermasdan foydalanish mumkin bo‘lgan davlat mashinasi unsuri sifatidagi obrazini yaratadi. “Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir”, degan shior aynan ijtimoiylik inson hayoti substansiyasi, negizini tashkil etishini tushunish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Insonning biologik va ijtimoiy tabiati haqidagi falsafiy asarlarda jins, jinsiy munosabatlar, erkak va ayol o‘rtasidagi farq, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar muammolari, o‘lim muammosi deyarli yoritilmagan.

Vaholanki, insonning real hayoti – tug‘ilish va o‘lish biologik sanalari bilan “kvantlangan”. R.Karpinskaya ta‘biri bilan aytganda, mazkur chegaralarda hayot kontinual va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham, jinslar o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarga to‘la [1, b 3]. Hozirgi zamon falsafasi va fani insonni o‘rganishda uning yaxlit ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi talqinidan kelib chiqadi. Psixolog A.Leontev inson faoliyatini “hayot birligi” deb nomlagan. “Individ” tushunchasi “shaxs” tushunchasi uchun asos sifatida amal qiladi, deb hisoblanadi [2, b 79].

Dunyo markaziga insonni qo‘yuvchi yondashuv doimo antropotsentristik yondashuv deb atalgan. Qadimgi sofist Protagorning: “Inson barcha narsalarning mezoni” [3, b 66], degan mashhur iborasi antropotsentrizmning aniq ifodasidir. Bunda jonsiz va jonli tabiatning o‘zaro ta‘siri inson me‘yorlari, ideal hamda da‘volari nuqtai nazaridan qaraladi. Inson dunyoning asosiy va eng katta boyligi sanaladi.

Turli zamonlarda mutafakkirlar insonni turlicha ta‘riflaganlar. Homo sapiens — aql-idrokli odam eng ko‘p qo‘llaniladigan ta‘rif. Animal rationale — oqil hayvon ta‘rifi K.Linneyning zoologik tasnifida keltirilgan; a tool making animal – “qurol yasovchi hayvon” — Franklin taklif qilgan ta‘rif; “ramziy hayvon sifatidagi odam” — Animal symbolicum – Kassirer chiqargan xulosa. Kerkegor g‘oyalarini quyidagicha talqin qilish mumkin: “inson — tanlash qobiliyatiga ega jonzot” Nitsche insonni va‘da berishga qodir, bizni axloq qoidalari dunyosiga olib kiruvchi jonzot sifatida ta‘riflagan. Russo: “Fikrlovchi inson — yo‘ldan ozgan jonzotdir” [4, b 190], degan. Inson yangilikka intiluvchi jonzotga tenglashtiriladi. Ba‘zan unga o‘z hayotiga mutlaqo asketik yondashishga qodir jonzot sifatida qaraladi.

Rus faylasuflari – inson muammosi bo‘yicha mutaxassislar I.Frolov [5, b 211], B.Grigoryan [6, b 54], L.Bueva [7, b 82], R.Karpinskaya ijtimoiylashgan odam sxemasini rad etishga harakat qildilar. Ular insonga (J.Lokk kabi) jamiyat kerakli so‘zlarni yozuvchi toza taxa

sifatida qarash to'g'ri emasligini, individning tabiiy-biologik negizlariga ham jiddiy e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozir G'arb adabiyotlarida "mind – body" (aql – tana), "nature — nurture" (tabiat – tarbiya) muammosi muhokama qilinmoqda. Ammo asosiy muammo ko'rsatib o'tilgan mohiyatlarni dixotomik mufassallashtirishda emas, balki insonning yagona obrazini yaratishdadir. Bu esa ijtimoiy-gumanitar va tabiiy- ilmiy sohalardagi bilim yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan kompleks yondashuvni taqozo etadi. Homo sapiens evolutsiyasi to'g'risida so'z yuritganda oddiy biologik yoki ijtimoiy mezonlarga emas, balki biologik-ijtimoiy mezonlarga suyanish lozim.

Inson va uning qobiliyati muammosi shuning uchun ham alohida o'rin egallaydiki, tabiiy ilmiy bilimning bu muammoni o'rganish imkoniyatlari ancha cheklangandir. Falsafiy va ijtimoiy bilim ham insonni mukammal bilishni da'vo qila olmaydi. Demak, bunda kompleks yondashuvgagina umid qilish mumkin. Bu yondashuv inson tabiatini tushunishning butun ratsionalistik an'anasi hamda ezoterik tafakkur imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga insonni o'rganish chegaralarini ancha kengaytirish imkonini beradi.

Hozirgi zamon fani inson hodisasini o'rganishga tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka oid bilimlar sintezi asosida yondashishni taklif qiladi. Bunda inson ijtimoiy xulq-atvorining ijtimoiy-biologik asoslarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Hozirgi fanlarda inson va oliy hayvonlar xulq-atvori o'rtasidagi o'xshashliklarning samaraliligi keng muhokama qilinmoqda. Ijtimoiy biologiya darvinizm prinsiplari va tushunchalari, chunonchi, tabiiy tanlanish, evolyutsiya jarayonini populyatsion genetika qonuniyatlari universalligining adaptogenezi sifatida tushunishni qabul qilish zarurligini qayd etmoqda. Insonni bilishning tabiiy- ilmiy metodlariga yon bosish insonshunoslikning biologiyaga bog'lanib qolishiga olib kelishi mumkin. Tabiiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlarga e'tiborsizlik esa insonni real o'rganishda uncha foydali bo'lmagan abstrakt va spekulativ modellarning tuzilishiga olib keladi.

Inson haqidagi fikrlar inson tabiati va mohiyatini farqlash zarur, degan xulosaga olib kelgan. Bu yerda aniq chegara bo'lishi mumkin emas, chunki inson doim olam jumbog'i, uning ochilmagan siri bo'lib kelmoqda. Lekin, shunga qaramay, fanda inson qobiliyati va sifatleri majmuini uning tabiati bilan bog'lab o'rganish qabul qilingan. Aqllilik, muomala qilish va ijtimoiy hayot kechirish qobiliyati insonning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Inson mohiyati esa, o'z tabiatining teran o'zagi, faqat "insongagina xos bo'lgan" jihatlar yoki insonni oliy hayvondan farqlash imkonini beruvchi sifatlar bilan bog'liqdir. Inson mohiyati nimada, degan savolga mutafakkirlar har xil javob beradilar. "Inson mohiyati ayrim individga xos bo'lgan mavhum narsa emas. Amalda u barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir", degan ta'rif insonning ijtimoiyligini odamzotning eng muhim va asosiy negizi sifatida qayd etadi. Bu yondashuv butun insoniyatning yagona teran mohiyati va aniq qayd etiladigan inson tabiati mavjudligini inkor etuvchi falsafiy antropologik relyativizmning amaldagi muqobilidir.

Inson haqida oddiy odamlar orasida so'z yuritilganida, odatda, mohiyat – tug'ma, shaxsiyat – o'zlashtirilgan sifat ekanligi qayd etiladi. Shaxsiyatdan farqli o'laroq, mohiyatni osongina yo'qotish, o'zgartirish yoki buzish mumkin emas. Shart-sharoitlarni o'zgartirish orqali shaxsiyatni deyarli to'liq o'zgartirish mumkin. Shaxsiyat yo'qolishi yoki o'zgarishi mumkin. Mohiyat inson jismoniy va aqliy holatining negizi hisoblanadi. Shaxsiyat o'zlashtirilgan sifatlardan tashkil topadi. Shaxsning shakllanishida imitatsiya – taqlid yo'li va tasavvur muhim ahamiyatga ega. Mohiyat shaxsiyatdan ustun bo'lsa, odam o'zi uchun foydali narsalarni afzal

ko'radi, shaxsiyat mohiyatdan ustun bo'lgan holda esa o'zi uchun zararli narsalarni afzal biladi, degan g'ayrioddiy yondashuv ham mavjud.

Ammo insonni bilish sohasida antropotsentrizmdan tashqari boshqa yondashuvlarga ham duch kelish mumkin. Tabiatni hamma narsadan ustun qo'yuvchi naturalistik yondashuv – tabiiy sentrizm va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan naturalizm prinsipi shular jumlasidandir. Bu yerda inson – tabiat farzandi. Uning barcha xato va kamchiliklari boshqa har qanday tabiiy jarayonlar singari o'rinli hamda tabiiydir. Kosmotsentrizm – kosmosning hamma narsani, shu jumladan, insonning mohiyati va tabiatini ham belgilovchi ta'siriga ishora qiluvchi dunyoqarash, bo'lib hisoblanadi.

Tarixiy-sivilizatsion jarayonda teotsentrizm ta'limoti ham muhim rol o'ynagan. U oliy, g'ayritabiiy mavjudotni dunyoning asosiy va eng muhim omili deb e'lon qilgan.

Hozirgi adabiyotlarda kosmos tafakkuri yoki kosmik aqlni anglatuvchi teokosmizm atamasiga ham duch kelish mumkin. Ba'zan inson, umuman, insoniyat rivojlanishining yangi darajasi zarurligini asoslash uchun ayni shu kosmik aqlga murojaat qilish talab etiladi. Oliy kosmik aql faollik, cheksiz harakat va rivojlanishning bosh negizi sifatida qabul qilinadi.

Sotsiotsentrizm ta'limoti madaniy-sivilizatsion omillarga suyanadi. Bu yerda inson o'zi yashaydigan ijtimoiy-madaniy muhit mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiotsentrizmga eng yaqin tushuncha sifatida amal qiluvchi kulturotsentrizm inson madaniyat mazmuni orqali o'z ma'nosini kasb etadi, degan tezisni himoya qiladi.

Antropotsentrizmning ziddi – insonga geologik kuchlardan biri sifatida qaraydigan yondashuv dezanropotsentrizm deb ataladi. Hozirda ancha mashhur bo'lgan bu yondashuv insonni uning ustun mavqeyi va o'rnidan mahrum etadi, hech narsa bilan cheklanmagan o'zboshimchalik oqibatlari haqida o'ylashga majbur qiladi. Insonni o'zi yaratgan texnokratik, sun'iy dunyo bilan universal evolyutsion rivojlanishga bog'lashdan iborat bo'lgan masala koevolyutsiya muammosi sifatida namoyon bo'ldi.

Koevolyutsiya g'oyasi tabiat va insonning o'zaro bog'langan ta'siri hamda mushtarak o'zgarishini anglatadi. Inson kuzatuvchi emas, balki kosmosning tabiiy qismi, deb tan olinadi. U hayotni nafaqat oqilona, balki ruhi va tanasi orqali hissiy idrok etadi. Ijtimoiy biologlar taklif qilgan "irsiy-madaniy koevolyutsiya nazariyasi" koevolyutsiya g'oyasining rivojlantirilgan ko'rinishidir. Bu nazariyada organik va madaniy evolyutsiya mushtarak kechishining eng optimal shart-sharoitlari to'g'risida so'z yuritiladi. Lekin bunda genlar ustun qo'yiladi, chunki ular koevolyutsiyaning asosiy qoidalarini belgilaydi. Tabiiy-biologik asoslar erkin va belgilovchi bo'lib qoladi.

Ijtimoiy biologiya bilan muayyan darajada bog'liq bo'lgan kognitiv psixologiya insonga axborotni idrok etuvchi va unga ishlov beruvchi, fikrlash faoliyatining muayyan strategiyalari bilan boshqariluvchi faol mavjudot sifatida qarashni taklif qiladi. Individning faolligi stixiyali-spontan deb emas, balki darajalashtirilgan-tartibga solingan deb qaraladi. Bu kognitiv psixologiyaning bahsli joylaridan biridir. Kognitiv psixologlar o'z g'oyalarini asoslashda "kompyuter metaforasi"dan foydalanadi. Ular bosh miya qobig'ida axborotga ishlov berish jarayonlarini hisoblash qurilmasi amalga oshiruvchi o'zgarishlarga taqqoslaydi. Kognitiv psixologlar foydalanuvchi kategoriyalar – signal, filtr, axborot oqimi va hokazolar ularning ta'limotida axborot nazariyasining ta'siri katta ekanligidan dalolat beradi.

Falsafiy qiziqishlari markazida tabiat va inson mohiyati to'g'risidagi masala turuvchi fan "Falsafiy antropologiya" deb ataladi. U ekzistensiya g'oyalariga qarab mo'ljal oluvchi

aylasuflarning fikr-mulohazalariga juda boy. Antropologik yondashuv inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, insonning ekzistensial tahlili bilan shug'ullanadi. "Ekzistensiya" tushunchasi tadqiqotchining fikrini, avvalo, inson qilmishlari va azob-uqubatlarida namoyon bo'luvchi inson hamda dunyo aloqalarini izlash, aniqlash tomonga yo'naltiradi.

Hozirgi zamon G'arb falsafasining yo'nalishi sifatidagi falsafiy antropologiya dastlab nemis faylasufi va sotsiologi M.Sheler (1874-1928) asarlarida ishlab chiqilgan va germaniyalik faylasuf X.Plesner (1892-1985), nemis mutafakkiri A.Gelen (1904-1976) asarlarida rivojlantirilgan.

Shaxsni umumbashariy rivojlanishning asosiy mazmuni deb e'lon qiluvchi personalizm uni o'rganishga nisbatan ancha murakkab yondashuvlarni taklif qiladi. Shaxs o'z mohiyatini muqarrar tarzda o'zidan tashqarida ko'radi – bu eksteriorizatsiya, u teran ichki me'yor va mo'ljallardan oziqlanadi – bu interiorizatsiya. Nihoyat, shaxs o'z real empirik mavjudligining tor chegaralaridan o'tib, oliy qadriyatlar: haqiqat, ezgulik va go'zalikka intiladi – bu transsendensiyadir.

Ekzistensializm insonni ilmiy metodlar yordamida bilib bo'lmasligi haqidagi g'oyani qattiq himoya qiladi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda yevropa sivilizatsiyasida insonparvarlikning taqchilligi fanga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keldi. Insonning haqiqiy mavjudligi, ya'ni ekzistensiya uning obyekt tarzidagi haqiqiy borlig'iga teng emas. Atamalar, tushuncha va abstraksiyalar bilishning ilmiy obyektivligini insonning haqiqiy borlig'idan uzoqlashtiradi. Inson doim hayotida muayyan yo'lni tanlash holatida bo'ladi, u o'zlikni anglash yo'lida ko'p karra o'zgaradi. Ekzistensializm asoschisi S.Kerkegor an'anaviy fandan voz kechib, haqiqiy ekzistensiya sari yuksalishning ancha izchil uch bosqichli nazariyasini taklif qildi. Tashqi borliqni aniqlash bilan bog'liq birinchi – estetik bosqichda lazzatlanishga intilish yetakchilik qiladi. Ikkinchi – axloqiy bosqichda burch hissi va axloq qonuni me'yorlari hukm suradi. Uchinchi – diniy bosqichda ongli ravishda qabul qilingan azob-uqubat mavjudlik prinsipi hisoblanadi. Bu o'z kechinmalarini xayoldan o'tkazish borliqning yangi "transsendent" mezonini tushunib yetish imkonini beradi.

Yuqoridagi qarashlar inson mavzusining nihoyatda serqirra ekanligini, u bilan bog'liq muammolarga nisbatan rang-barang yondashuvlar mavjudligini yaqqol namoyon qiladi. Bu esa o'z navbatida nafaqat hozirgi davrda, balki kelajakda ham inson bilan bog'liq muammolar falsafaning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolaverishini ko'rsatadi.

M.Sheler fikriga ko'ra, inson haqida fikr yuritayotgan o'qimishli yevropalikning ongida g'oyalarning uch doirasi to'qnashadi. Birinchi – yahudiylar va xristianlarning Odam Ato va Momo Havo, yaralish, jannat va gunohga berilish haqidagi an'anaviy tasavvurlari doirasi. Ikkinchi – qadimgi yunonlarning insonni inson qilgan narsa uning aqli, nutqi va oqilligidir, degan tasavvurlari doirasi. Uchinchi – hozirgi tabiatshunoslikning inson yer rivojlanishining ancha kechki mahsuli, o'zidan oldin hayvonot dunyosida mavjud bo'lgan shakllardan energiya va qobiliyatlari birikuvining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi jonzot, degan yondashuvlari doirasi¹⁶.

Aytib o'tilgan va boshqa shunga o'xshash ta'riflar insonning umumiy obrazini yaratadi. Shunga qaramay, inson barcha zamonlarda va hamma xalqlarda dunyoning eng buyuk siri bo'lib qolayotir. Bu ta'riflarni falsafa tarixida insonning mavjudligi yagona ishonchli dalil asosida aniqlangan davrda dunyoga kelgan ta'riflar bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, F.Dekartning "cogito ergo sum" — fikrlayapman, demak, mavjudman yoki J.Berklining "mavjud

bo'lish — idrok etilish demak”, Men de Biranning “Volo ergo sum” – “xohlayapman, demak, mavjudman”, A.Kamyuning “isyon qilyapman, demak, yashayapman” kabi fikrlari ham inson tabiati va mohiyatining yangi-yangi qirralarini namoyon etadi. Bunga F.Nitsshe insonning bosh g'oyasi deb e'lon qilgan hokimiyatga intilishni yoki Z.Freyd ilgari surgan yashirin jinsiy mayl – “libido” g'oyasini qo'shib, iqtisodiy materializmning iqtisodiy omili ahamiyatiga e'tibor qaratsak, falsafiy antropologiyaning muammolar doirasi ayon bo'ladi. G'oyalar va yondashuvlarning bu antagonizmida inson tabiatining bir xilligi va yagonaligi namoyon bo'lmaydi, balki yanada mavhumlashadi. Insonning o'zi uning uchun eng asosiy muammoga aylanadi.

Masalan, T.Gobbs falsafiy antropologiyaning o'z variantini tuzar ekan, inson tahlilini uni boshqa tabiiy va fizik jismlarga o'xshagan bir jism sifatida tushunishdan boshlash, shundan keyingina uning ma'naviy, axloqiy jonzot, sun'iy jismlar – madaniyat va davlat bunyodkori ekanligiga e'tiborni qaratish lozimligiga ishonchi komil bo'lgan.

Insonning hayot faoliyati va uning ruhini tushuntirishda T.Gobbsda mexanistik yondashuv yetakchilik qiladi. Hayot – a'zolar harakati, yurak – prujina, asablar – iplar, tomirlar – harakatni inson tanasining butun mashinasiga tatbiq etuvchi g'ildiraklardir.

T.Gobbs insonning egoistik tabiatiga alohida e'tibor qaratadi. Insonning o'z-o'zini saqlashga intilishi uni hayvonot dunyosiga yaqinlashtiradi: “odamlar tabiatan ochko'zlik, qo'rqqoqlik, johillik va boshqa hayvoniy hislarga moyil”, ular “izzat-ikrom va foyda” qidiradi, naf ko'rish yoki nom chiqarish uchun, ya'ni boshqalarni emas, balki o'zini yaxshi ko'rgani uchun harakat qiladi. T.Gobbs [8, b 56] fikriga ko'ra, har qanday xalq rivojlanishning ikki bosqichidan o'tadi. Birinchi – davlatgacha yoki tabiiy rivojlanish bosqichi. Ikkinchi – davlat sifatida rivojlanish bosqichi. Mutafakkir odamlarning hissiy-egoistik tabiatini, ularga tabiiy holatda xos bo'lgan ochko'zlikni yorqin bo'yoqlarda aks ettirgan. O'z fikr-mulohazalariga “Odam odamga dushman”, degan qadimgi maqol bilan xulosa yasagan. Tabiiy holat uzluksiz “har kimning har kim bilan urushi”ni anglatadi. Bu urushda insoniyat o'zini o'zi qirib bitirishga mahkumdur. Shu bois davlatgacha yoki tabiiy rivojlanish bosqichi davlat sifatida rivojlanish bosqichiga o'tishi lozim.

Insonning olamga bo'lgan har qanday munosabatini falsafa deb atash mumkin emas. Buning uchun unda albatta quyidagi to'rtta jihati mavjud bo'lishi shart. Uni quyidagi sxemada aks ettirish mumkin:

	<u>ontologik munosabat</u>	
	<u>gnoseologik munosabat</u>	
INSON	<u>aksiologik munosabat</u>	OLAM
	<u>ma'naviy-amaliy munosabat</u>	

Xulosa. Insonning olamga bo'lgan ontologik munosabatiga insonning olamga, shuningdek, olamning insonga bo'lgan munosabati ham kiradi. Bunda olamning qanday paydo bo'lganligi, moddiy yoki ruhiy asoslardan tashkil topganligi, qanday qonunlar asosida rivojlanishi yoki kim tomonidan boshqarilishi, insonning dunyoda tutgan o'rni, uning tabiat bilan aloqadorligi kabi ko'plab ontologik xarakterdagi ta'limotlar ilgari suriladi. Aynan shunday savollarning o'rtaga tashlanishi falsafiy dunyoqarash tarixida o'ziga xos, ba'zida muqobil bo'lgan ta'limotlarning (strategiyalarning) vujudga kelishi sabab bo'lgan.

Insonning olamga gnoseologik yondoshuvi olamni bilish mumkinligi va uning usullari haqidagi falsafiy ta'limotlarda o'z ifodasini topgan.Undagi bosh g'oya haqiqat, uning tabiati, manbalariga tegishli.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Барулин В. С. Социальная философия. Учебник для вузов. М., 1999,–С. 3
2. Leontiev A.N. Faoliyat. – Т., 2002. 79-бет.
3. Гуннар Скирбек, Нилс Гилье Фалсафа тарихи. – Т., 2002. 66-бет.
4. Философский энциклопедический словарь. –М.: Инфра, 1999.– С. 190
5. Фролов И.Т. “Философские проблемы современной биологии” - М., 1961 – С. 211
6. Григорьян Б Т Философия о сущности человека Архивная копия от 21 декабря 2021 на Wayback Machine. М., 1973. .– С. 54
7. Буева Л.П. Идентичность в системе психологического знания // Психология и психотехника. - 2011. - № 7 (34). - С. 6-14. (1 п.л.)
8. Gobbs T "Fuqarolik haqidagi ta'limotning falsafiy elementlari" – Т., 2002. 56-бет

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).